

FRANSUZ TILIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING LINGUO-MADANIY XUSUSIYATLARI

Andapulatova Firuza Ikramovna

*Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi
"chet tillar" kafedrasida fransuz tili fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada frazeologik birliklarning lingvistik sifatida tilshunoslikda rivojlanishini tutgan o'рни yoritilgan. Leksikologiya so'zlarining etimologiyasi, semantikasi yangi so'zlarning yasalishi va paydo bo'lish usullari haqida ma'lumot berilib, misollar yordamida izohlangan.*

Zamonamizda tildagi frazeologik tizimni semantik-pragmatik, linguokulturologik, kognitiv, ilmiy nuqtai nazardan o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda.

Bizga ma'lumki huddi o'zbek tilidagi bo'lgani kabi fransuz tilida ham frazeologik birliklar fransuz madaniyati, milliy mentalitetini ifodalovchi lisoniy birlik hisoblanadi.

Ular muayyan xalqning milliy mentaliteti, etnomadaniyati haqida ma'noni komponent va baholovchi munosabat ifodasi haqida ma'lumot beradi.

Umuman frazeologizmlar xalqning turmush tarzi, madaniyati, ma'rifati, milliy mentalitetining yorqin ifodasidir. Aynan hozirgi davrda frazeologik birliklarni semantik-pragmatik, lingvokulturologik, kognitiv ilmiy nuqtai nazardan o'rganishga imkon berilishi o'rganmoqchi bo'lgan tilimizni yanada chuqurroq anglab yetishimizga imkon yaratyapti.

Kommunikativ-pragmatik tadqiqotda frazeologik birliklarda linguo-madaniy xususiyatlarning ma'nolar juda muhim o'rin tutadi. Quyida bu linguo-madaniy xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Nutq aktlarida bu ikki ma'no ko'plab uchrab turishiga guvoh bo'lamiz. Bu aniq va yashirin ma'no nutq va taktika, suhbat qoidalarida, muloqotimizning pragmatik ma'nosida, aloqaning bilvosita mazmunida, so'zlovchining o'zi gapirayotgan gapga munosabatida linguo-madaniy xususiyatlarini mavjud bo'ladi.

Murojaat qiluvchining nutqiga qarab nutq talqini adresatga ta'siri (perlokativ ta'sir), adresat fikri va munosabati, nutq o'zgarishining emotsional holati kabi masalalarni ikkinchi tomon o'z ichiga qamrab oladi.

Uchinchi aspekt esa muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar ya'ni nutqiy muloqot shakllari va ular tarkibiga kiruvchi dialog, intervyu, tilning ijtimoiy va axloqiy jihatlarini, aloqa paytidagi nutqiy munosabatlarni, so'zning haqiqiy ma'nosini, kommunikativ shakl va mazmuning kommunikativ vaziyatga ta'siri kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Bizga ma'lumki tilshunoslikda pragmatikaning chegarasi yo'q.

Shuning uchun ham uning tadqiqot obyekti adresat va ularning o'zaro munosabatlarga oid muammolarni o'rganishdir.

Har qanday matn muallifi o'zining niyati, bilimi, maqsadi, adresatning vaqt va makonini qabul qilishi, bir-birini tushunish imkoniyati va pragmatik implitsit va eksplitsit ma'nolarini o'z matnida amalga oshiradi.

Misollarni davom ettiradigan bo'lsak: be-all and end-all (s.s.: hammahammasi) – eng muhim narsa yoki voqea; the lady doth protest too much (s.s.: xonim haddan tashqari norozilik bildiradi) – odamlar haqiqatni aytmayapti deb o'ylaydigan darajada tez-tez va shu qadar kuchli tarzda rad etish; foregone conclusion (s.s.: oldindan xulosa qilish) – muqarar natija; the primrose path – (s.s.: navro'zgul yo'li) – oxiri voy bo'lgan o'yin kulgiga boy, oson hayot; to thine own self be true (s.s.: o'zingni haqiqating haqiqatdir); one fell swoop (s.s.: bitta yiqilib tushdi) – bittada bajarmoq; a pound of flesh (s.s.: bir kilo go'sht) – qattiq talb qilinadigan qarz yoki jazo, ayniqsa, shafqatsiz yoki asossiz jazo; forever and a day (s.s.: abadiy va bir kun) – juda uzoq vaqt davomida; tower of strength (s.s.: kuch minorasi) – qiyinchilik paytida unga suyanadigan ishonchli odam; a method in one's madness (s.s.: aqldan ozganlikdagi usul) – ahmoqona ko'ringan ish bo'lishiga qarmay, aniq maqsad va boshqalar.

Matnlarda pragmatik implitsit, eksplitsit ma'nolari axborot vazifasi, motivatsiya vazifasi, baholash vazifasi, kommunikativ va ijro etuvchi predikatlar bilan ifodalanadi. Bizga ma'lumki motivatsiya vazifasi bu- biror kishini biror narsa qilishga undash, baholash vazifasi esa- o'sha matnni baholash hisoblanadi. Bu vazifalar murojaat qiluvchining maqsadi va boshqa turli xil yo'llarda izohlanadi. Misol uchun gazeta va jurnallardagi siyosiy mavzular auditoriyaga ta'sir o'tkazish va ishontirish ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ham, u o'quvchilarga ta'sir qilish uchun implitsit va eksplitsit komponentlarning kombinatsiyadan foydalanish va turli xil xususiyatlarni shakllantirishning bir necha omillarini o'z ichiga qamrab oladi. Bizga ma'lumki har bir siyosiy matnlar o'z ichiga siyosiy matn muloqot maqsadi, motivatsiyasi, kommunikator, qabul qiluvchi, kommunikativa vaziyat kabi mavzularda amalga oshiriladi. Lekin shuni ta'kidlashimiz kerakki, ma'lum bir maqsadda yozilgan har qanday ma'lumot o'z auditoriyasini topadi. Bunday ma'nolarni faqatgina ma'lum bir odamlar tushunishi mumkin, ya'ni adresat matnda faqat ma'lum bir firklarni bildiradi va ularni so'zlar orqali ifodalaydi, lekin ularning implitsit va eksplitsit ma'nolari faqatgina kontekst orqali bilib olish mumkin.

Shuning uchun bunday vaziyatlarda ba'zi psixologik, kommunikativ, pragmatik va sotsiologik omillarni hisobga olish joizdir. Ya'ni muallif kim? U qanday yoshda, ish joyi qayer, jinsi va millati va uning siyosiy qarashlari qanday? U qaysi hukumatni qo'llab quvvatlaydi yoki betaraf, kimning e'tiborini jalb qilmoqchi, murojaat qiluvchilardan nimani kutmoqda? Berilayotgan bayonotlar hammasi ham to'liq ma'lumotlarni bera olmaydi.

Ma'no mazmuni yoki aniq mazmuni to'g'ridan to'g'ri til orqali ochiq ifodalanadi va murojaat qiluvchilar muallifning fikrlarini kontekst orqali ochib beradi. Bu berilayotgan semantikaning obyektiv xususiyatidir.

Biroq ma'lumot noaniq yoki ma'lumot turli yashirin ma'nolar bilan izohlansa, bu yashirin ya'ni implitsit ma'no deyiladi.

Bunday hollarda yashirin ma'no haqiqiy ma'noni to'ldiradi yoki o'zgaritiradi. Bu vaziyatda eksplitsit ma'noni yoddan ko'tarmaslik kerak. Haqiqiy ya'ni eksplitsit ma'no – matnning muhim va asosiy qismi hisoblanib, uning yozishga undagan g'oyasi hisoblanadi. Bu eksplitsit ma'no ikkita aspektga bog'liq bo'ladi. Birinchidan ekstralingvistik vaziyat bo'lsa, ikkinchidan, odamlarning manfaatlaridan kelib chiqadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, haqiqiy, eksplitsit ma'no situation va subyektiv xususiyatlarga ega bo'ladi.

Bu fikrlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, agar kontekstda berilayotgan ma'no eksplitsit – haqiqiy yoki implitsit- yashirin ma'noligini adresant mag'ziga yetib bormasa kontekstda berilayotgan ma'no qandayligini farqlay olmaydi.

Shuning uchun ham o'rganilayotgan tilning milli-madaniy dunyoqarashga oid frazeologik birliklaridagi eksplitsit va implitsit ma'nolarni bilib olishi kerak. Shundagina aniq kontekstni ma'nosiga yeta oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO'YXATI:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologizm>
2. Rahmatullayev Sh., O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, T., 1966
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rachmatullayev Sh., Hozirgi o'zbek adabiy tili [3nashr], T., 1992